

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'RTASIDAGI O'ZARO IQTISODIY HAMKORLIKNING TARKIBIY TUZILISHINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

Yovqochev Sherzod

*O'zsanoatqurilishbank ATB Bosh menejer,
Mustaqil tadqiqotchi*

O'zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish konsepsiysi maqsadlarida ko'rsatilganidek milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobiga uning raqobatbardoshligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.¹⁹

Bunday vazifalarini amalga oshirish negizada ustuvor iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning uzoq muddatli strategik rejalarini ishlab chiqish taqozo etiladi. Shu munosabat bilan, hozirgi globallashuv va milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida raqobatdosh ustunlikka ega bo'lgan iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash va xorijiy moliya resurslarni safarbar etish dozlarb ahamiyat kasb etadi.

Shuni qayd etish lozimki, milliy iqtisodiyot ustuvor tarmoqlarini aniqlash va unga moliya resurslarini taqsimlash ko'plab mamlakatlarda ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. G'arb olimlari Xausman R., Klindjer B., Xvang Dj. va Rodrik D. tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatlar shunday ustuvor iqtisodiyot tarmoqlarini takomillashtirishi kerakki, uning mahsulotlari rivojlangan mamlakatlar eksportiga o'xshash va xarakterli bo'lishi lozim.²⁰ Bu tarmoqlardagi ishlab chiqarishning yuqori samaradorligi va ualrning xalqaro raqobatbardoshligining iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini tezlashtirishi tahlil etilgan.

Jahon banki guruhining ekspert-iqtisodchilari Dj. Lin va S. Monga tomonidan rivojlanayotgan bozor sharoitlari uchun samarali iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash uchun empirik metod ishlab chiqilgan.²¹ Unga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlar, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga tayangan holda, ustuvor iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishlari lozim. Bunda rivojlangan mamlakatlar tajribasi milliy iqtisodiyot tarmoqlarini takomillashtirish ustuvorligini ta'minlashga yordam beradi.

¹⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017.07.02 dagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son.

²⁰ Hausmann R., Hwang J., Rodrik D. What your export matters // J. Economic Growth. 2007. V. 12. –P 1–25. DOI: 10.1007/s10887-006-9009-4, Hausmann R., Klinger B. Structural transformation and patterns of comparative advantage in the product space // SSRN Electronic Journal. 2006. DOI: 10.2139/ssrn.939646, Hausmann R., Rodrik D. Economic development as self-discovery // J. Development Economics. 2003. V. 72. –P. 603–633. DOI: 10.3386/w8952.

²¹ Lin J. New structural economics: A framework for rethinking development and policy. World Bank Publications, 2012. –371 p. DOI: 10.1596/9780821389553_ch01, Lin J., Monga C. Growth identification and facilitation: the role of the state in the dynamics of structural change // Development policy review. 2011. V. 29. N. 3. –P.264–290. DOI: 10.1111/j.14677679.2011.00534.x.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

U.S. Ziyadullayevning ta'kidlashicha, xalqaro moliya institutlarining moliya resurslari mamlakatning makroiqtisodiy, bank-moliya, ishlab chiqarish singari yo'naliшhariga safarbar etilishi jalb etilayotgan mablag'lar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.²²

Xalqaro moliya instittlari bilan hamkorlikda (Rossiya misolida) bank tizimi risklarining oldini olish uchun sug'urtda, mablag'larni rezervlash, diversifikatsiya va chegaralash lozimligi qayd etiladi.²³ Bu esa, yana bir bor bank tizimiga ahamiyat berishni taqozo etadi.

V.N. Melnikovning fikricha, Jahon banki guruhining moliyaviy resurs va tecxnik yordamini mamlakat (Rossiya misolida) tuzilmaviy islohotlari, mintaqaviy va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish va sug'urtalash masalalariga jalb etishni ko'rib chiqish lozim.²⁴

Qolaversa, P.E Kuleshovning ilmiy ishlanmalarida Yevropa taraqqiyot va tiklanish banki (Rossiya misolida) Jahon banki guruhiga raqobatbardosh sifatida makroiqtisodiy, tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va tuzilmaviy islohotlar yo'naliшlariga resurslar ajratayotgani yoritilgan.²⁵

Ma'lumki, milliy iqtisodiyot taraqqiyoti ustuvor tarmoq sohalarining rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham, ustuvor tarmoq sohalarini belgilashda va ularga xorijiy moliya resurslari, xususan xalqaro moliya tashkilotlari mablag'larini taqsimlashda: iqtisodiy, geografik, ilmiy-texnik, innovatsion va boshqa xususiyatlarga tayanish kerak.

Shunday qilib, xaqlaro moliya institutlaridan jalb etilayotgan moliyaviy resurslarni ratsional taqsimlash hamda ularning texnik-konsultativ yordamini yangi yo'naliш tarmoqlariga yo'naltirilishi, o'ylaymizki mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish doirasida 2020-yil 24-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi maqsad va vazifalarga mos keladi.²⁶

Djon Hopkins Universiti professori Davesh Kapur "Jahon banki va uning yarim asrlik faoliyati" nomli asarida xalqaro moliya instittlari (Jahon banki guruhi) moliya mablag'laridan ko'plab mamlakatlar orasidan Janubiy Koreya unumli va samarali foydalanganligini qayd etadi.²⁷ Shu nuqati nazardan, tadqiqot ishida xalqaro moliya

²² Зиядуллаев У.С. Обеспечение национальной экономической безопасности при привлечении средств внешнего заимствования: диссертация ... кандидата Экономических наук: 08.00.05. Институт проблем рынка РАН.- Москва, 2016. – 120 с.

²³ Заидов К.Х., Пономарева С.В., Серебрянский Д.И. Проблемы функционирования и перспективы реформирования основных международных финансовых институтов // Региональные проблемы преобразования экономики, №. 8 (94), 2018, -С. 152.

²⁴ Manba: Мельников В. Н. Международные финансовые институты и их роль в трансформационных процессах постсоциалистических стран : дис. ... д-ра экон. наук : 08.00.14 : Москва, 2000 227 с. РГБ ОД, 71:02-8/25-2

²⁵ Manba: Кулешов П. Е. Современная система региональных финансовых институтов и интересы России : Дис. ... канд. экон. наук : 08.00.14 : Москва, 2004 116 с. РГБ ОД, 61:04-8/3783

²⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 25 yanvar, –№19 (7521).

²⁷ Manba: The World bank: Its First Half Century. Vol 2. Davesh Kapur, John P. Lewis, Richard Webb. Brooking Institution Press. Washington D.C. 1997.P- 44.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR


VIII son, Iyul

institutlari bilan iqtisodiy hamkorlikning Janubiy Koreya tajribasi o'r ganildi va shu asosda yangi hamkorlik yo'nalishlari ishlab chiqildi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda moliyaviy resurslarni infratuzilma rivojlanganligi doirasida taqsimlash yo'nalishlari ishlab chiqildi (1-rasmga qarang).

Birinchidan, mamlakat sanoatini rivojlantirish uchun xalqaro moliya tashkilotlari moliya resurs va texnik manbalaridan foydalanish. Uzoq muddatli istiqbolda sanoat mamlakatni barqaror rivojlantirishga erishishda asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lishi lozim. Bunda xom ashyo va energiya tashuvchi mahsulotlar eksportiga emas, balki rivojlanishning innovatsion va yuqori texnolgik modeliga o'tish uchun shartsharoitlar yaratish lozim. Xususan, qayta ishlovchi tarmoq sohalarini tubdan isloh etish, metallurgiya salohiyatini faollashtirish, kimyo sanoati tarmoqlarini rivojlantirishni jadallashtirish, mashinasozlik, elektrotexnika mahsulotlari sifatini oshirish yuqoridagilar jumlasidandir.

1-
rasm.



Xalqaro moliya institutlari moliya resurslarini hududiy infratuzilma rivojlanganligi doirasida taqsimlash²⁸

Ikkinchidan, mamlakatimiz ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini takomillashtirish jarayiniga xalqaro moliya institutlari texnik-konsultativ va moliya resurslarini safarbar etish. Mamlakatimizda ilm-fan va tajriba-konstrukturlik ishlarini yanada rivojlantirish uchun muhim hisoblanadi. Xalqaro moliya institutlari moliya resurslari va texnik yordamini o'quv yuklamalarini xorijiy standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish, xalqaro baholash jaroyiniga tayyorgaklik ko'rish, yangi

²⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

professional ta'lif tizimini joriy etish, milliy malaka tizimini ishlab chiqish, oliy ta'lif standartlarini xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, pedagogik mahorat va malaka darajasini oshirish va ta'lifning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot-texnologiyalarini joriy etish yo'nalishlariga taqsimlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, mamlakatimiz vechur moliya hamda kapital bozorini rivojlantirish jarayoniga xalqaro moliya institutlarining moliyaviy resurslarini va texnik-konsultativ yordamini jalb etish. O'zbekistonda bank tizimini rivojlantirish, yangi bank mahsulotlarini joriy etish, bank tizimida zamonaviy axborot texnologiya unsurlaridan keng foydalanish maqsadlarini jamlagan transformatsiya dasturi hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib, milliy banklarimiz va xalqaro moliya institutlari o'rtasida moliya resurslarini keng jalb etish tendensiyasi kuzatilmoqda. AT "Aloqabank" va ATB "O'zsanoatqurilishbank" misolidagi tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, so'nggi yillarda mahalliy banklarimiz xalqaro moliya institutlari bilan loyiha (ingliz. Project finance) va savdoni (ingliz. Trade finance) moliyalashtirish bo'yicha hamkorlik aloqalarini rivojlantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasida kapital bozorini rivojlantirish, xususan, moliya bozori infratuzilmasini takomillashtirish, bozor muhitini erkinlashtirish, yangi moliya mahsulotlarini shakllantirish, kapital bozor nazoratining institutsional salohiyatini oshirish singari ustuvor vazifalar muhim hisoblandi.

Vechur moliyalashtirish tizimi yuqori riskli bozor mexanizmi sifatida innovatsion sohani rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, yuqori texnologik, ilm talab mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan zamonaviy iqtisodiyot tarmoqlaridan hisoblanadi. Vechur tizimi negizi maxus tuzilgan fondlarga asoslanadi hamda ular mustaqil yoki moliya tashkilotlari tomonidan moliyalashtiriladi. Buning uchun, avvalo, qonunchilik shakllantirilishi, undan keyin esa, xalqaro moliya institutlari bilan iqtisodiy-moliyaviy hamda texnik-konsultativ hamkorlik olib borish mumkin bo'ladi. Vechur moliyalashtirish tizimi milliy iqtisodiyotimiz uchun nisbatan yangi unsurligini hamda bu yo'nalishda yetarli tajribaga ega emaslikni hisobga olgan holda, xalqaro moliya institutlari resurs va konsultativ yordamini safarbar etish maqsadga muvofiqdir. Vechur fondlar yangi texnologiyalarini ishlab chiqarish kompaniyalarining bozorga chiqishining dastlabki davrida yordam beradilar, shuning uchun yuzaga keladigan moliyaviy risklarni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

To'rtinchidan, mamlakatimiz istiqbolidagi yuqori texnologiyalar sohasini rivojlantirish jarayoniga xalqaro moliya tashkilotlari resurslari va texnik yordamini yo'naltirish. Ma'lumki, yuqori texnologiyalar sohasiga yetarli darajada e'tibor qaratilmas ekan, fan sig'imi yuqori tovarlar, xizmatlar ishlab chiqarish va eksport qilish, yuqori qo'shimcha qiymat hosil qilish to'g'risida fikr yuritib ham bo'lmaydi. Mazkur sohaga qancha ko'p e'tibor qaratilar ekan, shunda mamlakatda ilm-fan, iqtisodiy erkinlik darajasining yuqori bo'lishi, inson kapitali yuqori sifati, vechur moliyalash tizimi, texnoparklarning innovatsion maydondagi yuqori ulushi, mamlakat hududlarida Kremniy

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

vodiylari faoliyat olib borishi singari unsurlar ham shakllanadi.²⁹ Shu bilan birga, O'zbekistonda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va iqtisodiyotni liberallashtirish sharoitida innovatsion infratuzilma, texnopark, biznes-inkubatorlar, innovatsion-texnologik markazlar haqida yetarli tahlillar amalga oshirilgan.³⁰ Shuning uchun ham xalqaro moliya institutlari resurs, texnik-konsultativ yordami va grant ajratmalarining aynan yuqori texnologiyalar va innovatsion yo'naliш rivoji uchun taqsimlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, mamlakatda muqobil energetikani keng joriy etish jarayonlariga xalqaro moliya institutlarining resurs va texnik yordamini yo'naltirish. Mamlakatimizda yangi muqobil va qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (quyosh, shamol va biogas energiyasi) mavjud yuqori imkoniyatlaridan foydalanish davr talabi hisoblanadi.

Mamlakatimizda qayta tiklanuvchi va muqobil energiya manbalaridan foydalangan holda elektr energiya ishlab chiqarish, quyosh, shamol energiyasi, zamonaviy energiya samarador va energiya tejamkor texnologiyalari asosida mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish singari ustuvor vazifalar mamalakatimizning istiqboldagi rejalarini hisoblanadi.³¹ Shu bilan bir qatorda, muqobil energetika, bir tomonidan, moliyalashtirishdagi sarf-xarajatlarning kattaligi bilan ajralib tursada, ikkinchi tomonidan, uzoq muddatga mo'ljallanganligi va yangi ish o'rinalarini yaratish bo'yicha barcha energetika sohalari doirasida ustunlik qiladi.

Oltinchidan, ijtimoiy tarmoqlar majmui yo'naliшhiga xalqaro moliya tashkilotlari resurs va soha mutaxassislarini safarbar etish jarayonini yanada takomillashtirish, sifat hamda miqdoriy ko'rsatkichlarini oshirish lozim. Mamlakatimizda ijtimoiy kompleks sohalarini (sog'liqni saqlash, uy-joy communal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ichimlik suvi) rivojlantirish bo'yicha ishlarni amalga oshirilmoqda.

Mazkur yo'naliшlarni nafaqat moliyaviy resurs bilan, balki xalqaro tashilotlarning texnik-konsultativ yordami bilan kompleks ta'minlash imkoniyatlarini ko'rib chiqish lozim. Ijtimoiy tarmoqlar majmui loyihalari samaradorligini oshirish uchun mazkur sohalarning yangi ilmiy-texnik, innovatsion yo'naliшlariga e'tibor qaratish lozim. Uy-joy va communal xizmat sohasida raqamlashtirish, axborotlashtirish tizimini, zamonaviy elektron dasturiy ta'minotlarni amaliyotga tadbiq etish sur'atlarini jadallashtirish, mazkur soha sarf xarajatlarini kamaytirishga va loyihalar samaradorligiga erishishga olib keladi. Suv ta'moti va qishloq xo'jaligi yo'naliшida keng miqyosda mazkur soha ilm-fan yutuqlarini

²⁹ Manba: To'hliyev N. Innovatsion iqtisodiyot: muammolar, vazifalar, yechimlar.// UzA elektron jurnali. 2019 yil, 14 noyabr. 2-3 betlar. [Elektron resurs]. URL:<http://uz.a/upload/iblock/a84/Nurislom-Tukhliev.pdf>

³⁰ Manba: Шарифхўжаев Ш.О., Вохидова М.Х. Необходимость улучшения инновационной инфраструктуры в стране - Ташкент: Экономика и финансы, 2018г. №5, с.61-66

³¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 26.05.2017 dagi "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi PQ-3012 qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 22-son, 424-modda

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

VIII son, Iyul

(tomchilatib sug'orish, gorizontal va vertikal bog'dorchilikni tadbiq etish, gidropponika) joriy etish va loyihalarning samaradorligiga ijobiy ta'sir etadi.

Shu nuqtai nazaridan, yuqori o'rnlarda qayd etilgan yo'nalishlarni takomillashtirish uchun xalqaro moliya institutlari tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurs, beg'araz texnik ko'mak ya'ni grantlarni jalb etishga e'tibor qaratish lozim.